



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 5 (7)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

5

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Minojiddinov A.A. Meva-sabzavot tarmog‘i korxonalarini boshqarishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish yo‘llari	8
Mirzayev A.T., Dilnozaxon M. O‘zbekistonda turizm marketingi samaradorligini baholash va uni takomillashtirishning integratsiyalashgan mexanizmi.....	12
Shavkatov A.Sh. O‘zbekistonda kichik biznes rivojlanishining institutsional va makroiqtisodiy asoslari.....	16
Махамаджанов М.М. Инновационная трансформация банковского сектора Узбекистана: общесистемные тенденции и финансовые результаты.....	20
Sativaldiyeva G.X. IFRS 16 “Ijara” xalqaro standartiga muvofiq ijara hisobidagi o‘zgarishlar.....	24
Ismailov X.M. Aloqa korxonalari moliyaviy barqarorligini ta‘minlash metodologiyasini takomillashtirish masalalari.....	28
Yusubov I.I. Mintaqada iqtisodiyotni barqarorlashtirishda raqamli xizmatlarning rivojlanishi.....	32
Saidaxmedov N.X. Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoiyatini shakllanishi va rivojlanishining zamonaviy nazariyalari.....	35
Istamqulov D.Q., Danyarova F.B. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni takomillashtirish yo‘llari.....	40
Aipova I.I. Resurs samaradorligini baholashning nazariy usullari va ko‘rsatkichlari.....	43
Mirzaraximova A.A. Tijorat banklari tomonidan aloqa sohasini moliyalashtirish samaradorligini oshirish yo‘llari.....	49
Xalmirzaev A.A. Yer va suv resurslaridan samarali foydalanishda hududiy ixtisoslashuvning ahamiyati va iqtisodiy samaradorligi.....	53
Sidikov Z.A. Sirdaryo viloyatida sanoatlashtirish jarayonining hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta‘siri.....	59
Usmanova N.Y. Raqamli iqtisodiyotda menejment qarorlarini qabul qilishda innovatsion texnologiyalarning roli.....	63
Ergashev R.X., Rajabaliyeva I.A. Transport-logistika infratuzilmasini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish.....	67
Raximova D.S. Barqaror restoran amaliyotlari: oziq-ovqat chiqindilarini kamaytirish va qayta ishlashning innovatsion yondashuvlari.....	70
Narzullayeva X.A. Investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishning xalqaro tajribalari.....	76
Muxitdinov Sh.Z. Kichik agrobiznes subyektlarida mahsulotlar eksportini rivojlantirishga ta‘sir etuvchi omillar.....	84
No‘monov O.O‘. Agrotadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatiga ta‘sir etuvchi makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy omillarni kompleks baholash.....	88
Yeshimbetov U.X. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	92
Raximova K.N. Tadbirkorlik sharoitida yashil biznesni tashkil etish va rivojlantirishining o‘ziga xos xususiyatlari	97
Хошимов П.З., Тўрахожайев Х.Х. Ислоний банкларнинг ишлаш таомойллари ва ислон молия тизимининг Ўзбекистон иқтисодиётига таатбиқи.....	100
Sattarov R.A. An integrated methodological framework for evaluating and forecasting interregional economic cooperation: an input-output approach (evidence from Uzbekistan).....	107
Farmanov J.Z. Mintaqada asalarichilik ekotizimining tamoyillari va ekologik-geografik xususiyatlarini takomillashtirish	111
Qurbonov A.B. Janubiy iqtisodiy rayonda qishloq xo‘jaligi orxonlarining tarkibiy o‘zgarishi va agrar kooperatsiyani rivojlantirish yo‘nalishlari.....	114
Тоштемиров Т.Т. Ўзбекистонда кичик тадебиркорлик субъектлари фаолиятини кенгайтиришда солиқ механизмларида фойдаланиш масалалари.....	119
Arziyev M.A. O‘zbekiston iqtisodiyotini transformatsiyalash sharoitida oilaviy tadbirkorlikni rivjlanitirishning ustuvor yo‘nalishlari.....	122
Maxkamova S.Sh. Ekologik innovatsiyalar orqali yerlarni oqilona boshqarishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	127
Olimova N.X. Yashil moliyalashtirishning rivojlanish tendensiyalari hamda hozirgi amaliyoti: milliy kontekst	137
Zaylobitdinova H.X. Davlat oliy ta‘lim muassasalarining tijorat faoliyatini samarali boshqarish strategiyalari.....	141
Komilov A.I. Evolution of the catering industry in the context of digital technologies.....	145

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

Sotvoldiyev N.N. Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda mehnat bozoriga ta'sir etuvchi omillar.....	149
O'rinov A.A. Sanoat tarmoqlarining investitsion imkoniyatlarini barqarorlik indikatorlari asosida boshqarish mexanizmlari.....	154
Ahmadaliyeva R.A. O'zbekistonda xufyona iqtisodiyotga qarshi kurashish samaradorligi.....	158
Uzganbayeva D.T., Alimova Sh.F. The role of investment strategies in transforming small business entities into large corporate structures.....	162
Goziyev M.Sh., Abdufattoyeva M. Sun'iy intellekt asosida iqtisodiy qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirish.....	167
Qobilov H., Uzganbayeva D.T. O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy tadbirkorlikning ro'li: so'nggi yillardagi islohotlar sharoitida iqtisodiy o'sish va bandlikka qo'shayotgan hissi.....	170
Sotiboldiyeva R., Uzganbayeva D.T. O'zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining ahamiyati.....	174
Маматкулов З.Ш. Хизмат кўрсатиш фаолиятининг шакллантириш ва бошқаришда хориж тажрибаларидан самарали фойдаланишнинг инновацион йўналишлари.....	179
Shamsiddinov P., Uzganbayeva D.T. Iqtisodiyotning raqamlashtirishning afzaliklari va uning oqibatlari.....	185
Qosimov A.S. Jizzax viloyati mahallalarining qayta nomlanishi va demografik jarayonlar va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari.....	189
Qodirov A., Tulaganov E.J., Berdimurodov U.S. Inson kapitalini kapitalizatsiya qilish va samaradorligini oshirish.....	192
Saidkarimova M.I., Sobirov O.A. Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo'llari.....	199
Saidova M.J. Sanoat transformatsiyasi sharoitida kichik biznes va tadbirkorlikning o'rni (Andijon viloyati misolida)	203
Юсупов А.С., Пардаев Х.Ф. Динамическое управление международным портфелем акций: механизмы ребалансировки и преимущества глобальной диверсификации в условиях волатильности валютных рынков.....	206
Burxonov J.X., Soliyev I.I. Mehnat bozorini tartibga solishda innovatsion yondashuvlarning xorij tajribasi tahlili.....	213
Xaitbaev J.O. Mintaqa iqtisodiyotini barqarorligini ta'minlashda suv resurslaridan foydalanishning ko'p omilli ekonometrik modellari.....	217
Saidov U.S. Kichik tadbirkorlik subyektlarida ekologik innovatsiyalarni rag'batlantirishning moliyaviy yo'nalishlari.....	221
Nurmaxanmadov N.B. Iqtisodiyotning ekologiyaga ta'sir moyilligining oshib borishi muammosi.....	224
Xudayberdiyev K. Davlat xaridlarida elektron platformalar faoliyatini optimallashtirishda sun'iy intellektga asoslangan moderatsiya mexanizmlarining roli.....	230
Xolxo'jayev E.G'. Davlat xaridini tashkil etishda elektron savdolardan foydalanish samaradorligi hamda imkoniyatlari tahlili.	234
Rustamova F.A. Qishloq joylarda tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy samaradorligini baholash va uni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	238
Ikromov A. Iqtisodiy jarayonlarni ekonometrik modellashtirishda integro-differensial tenglamalarning o'rni va ularni tadqiq etish.....	241
Sarimsakov B.R., Usmonov J.Q. Xorijiy mamlakatlarda inson kapitalidan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida samarali foydalanish tajribalari.....	245
Maraimov I.R. O'zbekistonda kambag'allikni kamaytirish va aholi turmush farovonligini oshirish.....	251
Yusupov Sh.B. Xorazm viloyatida sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini baholash va oshirish yo'llari: 2020–2025 yillar tahlili va 2030 yilga prognoz.....	256
Chintemirova D.Sh. Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari.....	260
Xusanova Z.R. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.....	265
Tajiboyev S.O., Gulimboyev S.I. Moliyaviy siyosatning investitsiya muhitiga ta'siri.....	270
Tajiboyev S.O. G'aznachilikda to'lovlarni amalga oshirish.....	275
Xaydarov M., Baxtiyorov I. Innovatsion iqtisodiyot g'oyalari va ularni oliy ta'lim tizimi orqali qo'llashning nazariy asoslari.....	279
Ким Т.В., «Зарубежный опыт развития циркулярной экономики и её роль в формировании ресурсосберегающей модели экономического развития».....	286

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

Saydullayeva R.U. Analysis of financial efficiency and profitability in the green economy: the role of IAS and IFRS standards.....	292
Galatov A.A., Karimova G.A. O‘zbekistonda Islomiy moliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi nobank tashkilotlar faoliyati va strategik boshqaruv tizimining tahlili.....	296
Tursunov F.U. Oliy ta‘lim sifati monitoringini takomillashtirish mexanizmlarini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari... ..	300
Yakhshiboev R.E. Retrieval-augmented generative AI for smart learning content.....	303
Ergashev S.A. Sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish: ilmiy-nazariy va amaliy asoslar.....	307
Абдуллаева Р.Ғ., Тажибаева Н.Ф. Ўзбекистон иқтисодиётида инвестицияларнинг устувор йўналишлари ва ривожланиш истиқболлари.....	311
Sayfullayev J. Why organizations struggle to implement green management practices: key barriers and practical solutions.....	316
Sirojiddinov K.I. Korxonaning raqobatbardoshligini baholash usullari.....	319
Ibraximov X.S. Mintaqalarda tadbirkorlik muhitini shakllantirishda kichik biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘rni va mexanizmlari.....	324
Tajibayev K.Q. Farg‘ona vodiysida kichik biznes sub‘ektlari raqobatbardoshligini oshirishning metodologik asoslari.....	328
Abdulxakimov Z.T. Barqaror rivojlanish evolyusiyasi va tarkibiy qismlari masalalari.....	332
Pazilidinov M.M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda xorijiy mamlakatlarning raqamlashtirish tajribasi.....	337
Жураева М.З., Ахмедов Р.М. Экосистема применения системного подхода в менеджменте транспортной инфраструктуры.....	341
Ахмедов Р.М. Основные требования к разработке системного подхода в менеджменте дорожного хозяйства Республики Узбекистан.....	348
Mamasiddiqova F.X. Qishloq xo‘jaligida mahallalar ixtisosligi: nazariy asoslar, regional tahlil va rivojlantirish istiqbollari.....	353
To‘rayev A.A. Mehnat bozorini texnologik transformatsiyalash sharoitida ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlari.	358
Солиев И.И. Концептуальные основы институциональной автономии вузов в условиях модернизации системы образования Узбекистана.....	362
Xasanov S.Q. Sanoat korxonalarini rivojlantirishda modernizatsiya va klaster yondashuvining o‘rni.....	365
Murodov A. Aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirishning nazariy asoslari.....	369
Карабаев Р.З. Искусственный интеллект в цифровой экономике Узбекистана.....	374
Rasulova Sh.A. Bozor iqtisodiyotida monopoliyaning mohiyati, shakllari va uning O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta‘siri.....	378
Salimov A.F., Rasulova Sh.A. Bozor muvozanati va unga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar.....	381
Sattarova G.X. O‘zbekiston logistika bozorida yuk tashish xavflarini sug‘urta orqali kamaytirishning iqtisodiy samaradorligi.....	385
Муродхўжаева Ф.М. Маҳаллий саноатни шакллантиришда кластер ёндашуви ва 2030 йилгача трансформациянинг прогноз параметрлари (Наманган вилояти мисолида).....	389
Yoqubjonov R.R. Kichik biznes mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion yondashuvlar.....	396
Nasritdinov B.X. Risklarni integral baholash kichik biznesda moslashuvchan boshqaruv tizimi asbobi sifatida	400
Abdurazzoqov H.A. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonining hozirgi holati va tendentsiyalari.....	406
Turgunov M.M., Soliyev I.I. Milliy innovatsion tizim samaradorligini oshirishning strategik yo‘nalishlari.....	411
Kuzimuratova D.M. O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish.....	414
Soyibjonov I.S. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish.....	419
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	423
Odinayev G‘.J. Nogironligi bo‘lgan aholi qatlamini strategik sohalarda band qilish loyihalari.....	427
Abduvahobov V.B. Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishning global standartlari va O‘zbekiston tajribasi: kompleks tahlil.....	430
Қўзиева Н.Н. Билвосита солиқларнинг шаклланиши ва ривожланиб бориши.....	435

MOLIYAVIY SIYOSATNING INVESTITSIYA MUHITIGA TA’SIRI

ВЛИЯНИЕ ФИНАНСОВОЙ ПОЛИТИКИ НА ИНВЕСТИЦИОННЫЙ КЛИМАТ

THE IMPACT OF FINANCIAL POLICY ON THE INVESTMENT CLIMATE

Tajiboyev Suxbatillo Obidovich

O‘zMU Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasida katta o‘qituvchisi

Gulimboyev Sindor In’omjon o‘g‘li.

Iqtisodiyot fakulteti, Moliya va moliyaviy texnologiyalar yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada moliyaviy siyosatning investitsiya muhitiga ta’siri tahlil qilingan. Shuningdek, investitsion muhitga ta’sir ko‘rsatuvchi moliyaviy mexanizmlar, jumladan, soliq imtiyozlari, kredit resurslarining mavjudligi, makroiqtisodiy barqarorlik, davlat-xususiy sheriklik modeli va moliyaviy rag‘batlantirish vositalari o‘rganilgan. Bundan tashqari, mamlakatimizning investitsion jozibadorligini yanada yaxshilash bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: moliyaviy siyosat, moliyaviy barqarorlik, investitsiya, investitsion jozibadorlik, davlat-xususiy sheriklik, inflyatsiya.

В данной статье проанализировано влияние финансовой политики на инвестиционный климат. Также изучены финансовые механизмы, воздействующие на инвестиционную среду, включая налоговые льготы, доступность кредитных ресурсов, макроэкономическую стабильность, модель государственно-частного партнёрства и инструменты финансового стимулирования. Кроме того, разработаны научные предложения и практические рекомендации по дальнейшему повышению инвестиционной привлекательности нашей страны.

Ключевые слова: финансовая политика, финансовая стабильность, инвестиции, инвестиционная привлекательность, государственно-частное партнёрство, инфляция.

This article analyzes the impact of financial policy on the investment climate. It also examines financial mechanisms influencing the investment environment, including tax incentives, the availability of credit resources, macroeconomic stability, the public–private partnership model, and financial stimulation instruments. In addition, scientific proposals and practical recommendations have been developed to further enhance the investment attractiveness of our country.

Keywords: financial policy, financial stability, investment, investment attractiveness, public–private partnership, inflation.

Jahonda sodir bo‘layotgan turli ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, texnogen va tabiiy omillar ta’sirida global qo‘shilgan qiymat zanjirlarining uzilishi sharoitida, bir tomondan, investitsiyalarga bo‘lgan talabning ortayotganligi, ikkinchi tomondan, ekologik talablarning kuchayishi tufayli barqaror iqtisodiy o‘sinh sur‘atlarini ta’minlash zaruriyati investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirishni taqozo etmoqda.

Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra “2021-yilda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning global oqimi 1,58 trln. dollarga yetdi. Bu koronavirus pandemiyasi tufayli salmoqli darajada pasaygan 2020-yil ko‘rsatkichiga nisbatan 64 foizga yuqori hisoblanadi” [1]. Ayni vaqtda investitsiya resurslari uchun mamlakatlar o‘rtasida raqobat kurashining keskinlashuvi investitsiya muhitini rivojlantirish strategiyalarini o‘zgartirish asosida barqaror iqtisodiy o‘sinhni ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari

muhim o‘rin tutmoqda. Jahonda investitsiyalarni sanoatning qayta ishlovchi tarmoqlariga yo‘naltirish, raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni joriy etish asosida qulay investitsiya muhitini shakllantirish, milliy manfaatlarni e‘tiborga olib xorijiy investitsiyalar jalb etish hajmini oshirishning strategik maqsadlarini qamrab olgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Xalqaro ilmiy markazlar tadqiqotlarida iqtisodiyotda tarkibiy va institutsional o‘zgarishlarni amalga oshirish asosida investitsion muhitini yaxshilash uchun shart-sharoitlar yaratish, innovatsion yondashuvlarni joriy etgan holda qulay investitsiya muhitini shakllantirishning samarali usul va vositalarini ilmiy jihatdan asoslash, muhim investitsiya loyihalarini amalga oshirishda davlat-xususiy sherikligi imkoniyatlaridan samarali foydalanish dolzarb yo‘nalishlar hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyotida investitsiyalar mamlakatning barqaror iqtisodiy o‘sishi, texnologik yangilanishi va ijtimoiy farovonligi uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi. Investitsiya muhitining qanchalik jozibador bo‘lishi esa, avvalo, davlatning yuritayotgan moliyaviy siyosati bilan chambarchas bog‘liqdir. Moliyaviy siyosat davlat byudjeti, soliq tizimi, kredit va pul-moliya mexanizmlarini tartibga solish orqali iqtisodiy jarayonlar yo‘nalishini belgilaydi hamda investorlarga aniq signallar beradi. Shuning uchun ham har qanday davlatning iqtisodiy strategiyasida moliyaviy siyosatni takomillashtirish investitsiya faoliyatini rag‘batlantirishning eng muhim shartlaridan biri sifatida qaraladi.

O‘zbekistonda investitsiya faoliyatini amalga oshirish erkinligini ta‘minlash, milliy va xorijiy investorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini kafolatlangan holda himoyalash, qulay investitsiya muhitini shakllantirish asosida investitsiyalar hajmini keskin oshirishga ustuvor yo‘nalishlar sifatida qaralmoqda. Jumladan, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSH dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralari ko‘rish” [2] vazifasi qo‘yilgan. Milliy iqtisodiyotga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalarning mintaqalar kesimida notekis joylashuvi va uning hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tabaqalanishni keltirib chiqarishi uzoq muddatli davrda mamlakat barqaror iqtisodiy o‘shir sur‘atlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu munosabat bilan xorijiy investitsiyalarni mintaqalar iqtisodiyotiga jalb etishning samarali mexanizmini joriy etish, jumladan, to‘g‘ri moliyaviy siyosat yuritish, asosida investitsiya muhitini yaxshilash va barqaror o‘shir sur‘atlarini ta‘minlash yo‘nalishlarida keng qamrovli izlanishlar olib borilishini taqozo etmoqda. Bu va boshqa holatlar mazkur mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Investitsiya muhiti va barqaror iqtisodiy o‘shir o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanishlar, investitsiya muhitini yaxshilashda moliyaviy siyosatning ta‘siri masalalarini tahlil etish iqtisodiy adabiyotda muhim o‘rin tutadi. Moliyaviy siyosatning investitsiya hajmi va iqtisodiy o‘shir sur‘atlari hamda sifatiga ta‘sirining nazariy jihatlarini xorijlik iqtisodchi-olimlar – Y.Shumpeter, G.Lourens, X.De Gregorio, N.Bayraktar, P.Druker va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan [3].

O‘zbekistonlik iqtisodchi-olimlar A.V.Vahabov, G.X.Razikova, Sh.X.Xojibaqiev, U.S.Nadixanov, E.A.Maxmudov, A.Sobirov, Sh.I.Mustafokulov va boshqalar investitsion faollik va iqtisodiy o‘shir o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklarni tadqiq etganlar. Shuningdek, ilmiy tadqiqotlarida investitsiyalarning iqtisodiy o‘shir sur‘atlariga ta‘siri atroflicha yoritib berilgan. Globalashuv sharoitida xalqaro tajribani hisobga olgan holda qulay investitsiya muhitini shakllantirish, mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirish va shu asosda barqaror iqtisodiy o‘shirni ta‘minlashning nazariy jihatlarini takomillashtirish masalalarini tizimli ilmiy tadqiq etish iqtisodiy adabiyotda dolzarb, kam o‘rganilgan va ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan muammolardan hisoblanadi [4]. Yuqoridagilar tanlangan mavzuning nihoyatda dolzarbligidan dalolat beradi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan moliyaviy islohotlar investitsiya muhitining barqarorligini ta‘minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy siyosatning tarkibiy elementlari – byudjet siyosati, soliq tizimi, monetar boshqaruv, fiskal rag‘batlar va davlat qarzini boshqarish mexanizmlari – investorlar ishonchiga bevosita ta‘sir qiluvchi asosiy determinantlar qatoriga kiradi. Xususan, soliq yukining bosqichma-bosqich kamaytirilishi,

imtiyozli kreditlar berilishi, ustuvor sohalarga davlat kafolatlari ajratilishi investitsiya oqimini oshirganligi kuzatilmoqda.

So‘nggi yillarda amalga oshirilgan soliq va fiskal islohotlar korxonalar xarajatlarini qisqartirish, rentabellikni oshirish va investitsiya faoliyatini jonlantirishga xizmat qildi. Soliq tizimining soddalashtirilishi, yagona soliq stavkalarining pasaytirilishi, mahalliy va xorijiy investorlar uchun teng sharoitlarning yaratilishi investitsiya muhitining raqobatbardoshligini kuchaytirdi. Ayniqsa, kichik biznes va innovatsion faoliyatga qaratilgan imtiyozlar iqtisodiyotning diversifikatsiyalashuviga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Monetar siyosatning barqarorligi ham investitsiya muhitini belgilovchi muhim omillardan biridir. Inflyatsiya darajasini pasaytirish, milliy valyuta kursining prognoz qilinadigan bo‘lishi, kredit resurslarining mavjudligi va stavkalarining asta-sekin pasaytirilishi investorlarga uzun muddatli rejalar tuzish imkonini bermokda. Markaziy bankning likvidlikni tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirishi moliya bozorida barqarorlikni ta‘minlab, xususi sektor faolligini oshirdi.

1-jadval

Investitsiya atamasiga xorij va o‘zbek olimlarining bergan ta‘riflari [5]

T/r	Olimlarning FISH	Bergan ta‘riflari
1.	Pol Samuelson	Investitsiya — bu iqtisodiyotda ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish yoki tiklash maqsadida asosiy kapitalga yo‘naltirilgan xarajatlardir.
2.	John Maynard Keynes	Investitsiya — bu kapitalning jamg‘arilishi natijasida kelajakda daromad keltiradigan aktivlarni yaratish jarayonidir.
3.	Frank Knight	Investitsiya — bu noaniqlik sharoitida kapitalning qo‘yilishi bo‘lib, uning asosiy maqsadi foyda olishdir.
4.	A. Abdug‘aniev	Investitsiya — iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnik qayta jihozlash va ishlab chiqarishni kengaytirish uchun jalb qilingan barcha turdagi mablag‘lardir.
5.	B. Berkinov	Investitsiya — xo‘jalik yurituvchi subyektlarning kelajakdagi iqtisodiy samaradorlikni oshirish maqsadida kapital qo‘yishga yo‘naltirilgan mablag‘laridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq mamlakatimizda 250 milliard dollarlik investitsiyalarni o‘zlashtirish, jumladan 110 milliard dollar xorijiy investitsiyalar va 30 milliard dollar davlat-xususi sheriklik doirasidagi investitsiyalarni jalb qilish vazifasi belgilab berilgan [6].

O‘zbekistonda hozirgi kunda izchil takomillashtirilayotgan moliyaviy siyosat iqtisodiy o‘rishni jadallashtirish, investitsiya muhitini yaxshilash, fiskal barqarorlikni mustahkamlash, davlat moliyasining ochiqligi va samaradorligini oshirishga qaratilgan. Moliyaviy siyosatning asosiy yo‘nalishlari “O‘zbekiston–2030” strategiyasi, Prezidentning so‘nggi yillardagi byudjet, soliq va investitsiya siyosatiga oid farmon va qarorlarida atroflicha belgilangan. Zamonaviy moliyaviy boshqaruvning markaziy elementi sifatida soliq siyosati soddalashtirilmoqda, soliq yukining kamaytirilishi, soliq ma‘murchiligining raqamlashtirilishi va soliq to‘lovchilar uchun qulayliklar yaratish ustuvor vazifalardir.

Soliq siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri — biznes subyektlari zimmasidagi ortiqcha soliq yukini kamaytirish va ularni investitsiyalarga yo‘naltirilgan rag‘batlar bilan qo‘llab-quvvatlashdir. Yangi tahrirdagi Soliq kodeksi soliq stavkalarining izchil pasaytirilishi, foyda solig‘ining 20 foizdan 15 foizga tushirilishi, yagona ijtimoiy to‘lov stavkasining kamaytirilishi, kichik biznes uchun soddalashtirilgan soliq rejimlarining takomillashtirilishini nazarda tutdi. Soliq ma‘murchiligini raqamlashtirish natijasida “Soliq mobil ilovasi”, onlayn nazorat-kassa mashinalari,

elektron hisob-faktura tizimi kabi vositalar joriy qilinib, soliqlarning yig‘iluvchanligi oshdi, yashirin iqtisodiyot ulushi kamaymoqda. Bu jarayon investitsiya muhiti ishonchliligini oshirib, investorlar uchun shaffof, prognoz qilinadigan va maqbul soliq tizimini shakllantirmoqda.

Hozirgi davrda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi yildan yilga oshib bormoqda buni quyidagi grafikda ko‘rishimiz mumkin(1-rasm).



1-rasm. 2020-2024-yillarda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi o‘shish sur‘atlari dinamikasi [7]

2020–2024 yillar davomida investitsiyalar hajmi barqaror o‘shish tendensiyasini namoyon qilmoqda. 2020 yildagi 210,2 trln so‘mlik ko‘rsatkich 2024 yilga kelib 493,7 trln so‘mga yetib, qariyb 2,3 baravar oshgan. Bu o‘shish mamlakatda moliyaviy siyosatning izchil liberallasuvi, iqtisodiy islohotlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi va investorlarga yaratilgan qulay shart-sharoitlar bilan izohlanadi. Yillik o‘shish sur‘atlari ham investitsion faollikning jadallashganini ko‘rsatadi. 2020–2022 yillar oralig‘ida o‘shish nisbatan barqaror bo‘lsa (95,6–100,2%), 2023 yilda o‘shish keskin ravishda 123,4% gacha oshgan. 2024 yildagi 127,6% ko‘rsatkichi esa investitsiya oqimining yanada kuchayganini bildiradi. Ayniqsa, 2023–2024 yillarda yuz bergan sakrash investitsiya loyihalarining ko‘paygani, davlat infratuzilma dasturlarining kengaygani va xususiy sektor faolligining kuchaygani bilan bog‘liq. (1-rasm)

Xulosa qilib aytganda, moliyaviy siyosat mamlakatda investitsiya muhitini shakllantirish va rivojlantirishda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Soliq yukining maqbulligi, byudjet siyosatining barqarorligi, pul-kredit siyosatining izchilligi, davlat tomonidan beriladigan moliyaviy kafolatlar va rag‘batlantiruvchi mexanizmlar investitsiya jarayonlariga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Mamlakatda makroiqtisodiy muvozanatning saqlanishi, inflyatsiyaning boshqarilishi, valyuta bozorining barqarorligi va kredit resurslarining kengaytirilishi investorlar ishonchini oshiradi, kapital oqimini faollashtiradi hamda iqtisodiy o‘shish uchun mustahkam zamin yaratadi.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan soliq-sohada liberallashtirish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish, investorlarga yaratilayotgan qulay sharoitlar va moliyaviy imtiyozlar investitsion muhitning jozibadorligini oshirishda muhim o‘rin tutmoqda. Shu bilan birga, moliyaviy siyosatning yanada samarali yuritilishi uchun institutsional islohotlarni chuqurlashtirish, moliya bozori infratuzilmasini rivojlantirish va investorlar huquqini himoya qilish tizimini kuchaytirish dolzarb vazifa sifatida qolmoqda.

Bizning fikrimizcha, investitsion muhitni va jozibadorligini oshirish hamda samaradorligini ta‘minlash maqsadida quyidagi takliflarni olg‘a surishimiz mumkin:

Soliq siyosatini yanada soddalashtirish ya‘ni soliq ma‘muriyatchiligini yengillashtirish, soliq stavkalarini barqaror ushlab turish va investorlarga uzoq muddatli soliq prognozini taqdim etish investitsion xavflarni kamaytiradi deb hisoblaymiz

Makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, inflyatsiyani nazorat ostida ushlab turish, valyuta bozoridagi tebranishlarni cheklash va byudjet intizomini kuchaytirish investorlar uchun muhim ishonch omillari bo‘lib xizmat qiladi.

Kredit resurslariga kirish imkoniyatini kengaytirish bunda tijorat banklarida foiz stavkalarini pasaytirish, uzoq muddatli kredit liniyalarini ko‘paytirish va investitsiya loyihalariga imtiyozli moliya instrumentlarini joriy etish zarur.

Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihalarini kengaytirish orqali infratuzilma, energetika, transport va sanoat sohalarida DXSh mexanizmlarining qo‘llanilishi investitsion faollikni oshiradi va davlat xarajatlarini optimallashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. World Bank, “Investment Climate” / www.worldbank.org/investmaentclimate
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/6600413>
4. Шумпетер Й. Теория экономического развития. / предисл. В.С.Автономова. – М.: ЭКСМО, 2007. – 864 с.
5. Гитман Лоуренс Дж. Основы инвестирования: пер. с англ. – М.: Дело, 1999. – 991 с.
6. Jose De Gregorio. The role of foreign direct investment and natural resources in economic development. – Santiago: Working Paper No196. Central Bank of Chile, 2003 – P. 1-21.
7. Bayraktar N. Foreign Direct Investment and Investment Climate //Procedia Economics and Finance. – 2013. – Vol.5. – P. 83-92.
8. Друкер П.Ф. Бизнес и инновации: пер. с англ. – М.: Вильямс. 2007. – 432 с.
9. Вахобов А.В., Разыкова Г.Х. Хожибадиев Ш.Х. Иностранные инвестиции и модернизация национальной экономики / Под ред. д.э.н. проф. А.В.Вахобова. – Т.: Молия, 2011. – 300 с.
10. Надирханов У.С. Прямые иностранные инвестиции в Узбекистане: опыт, проблемы, перспективы роста. – Т.: «Fan va texnologiya», 2011. 184 с.
11. Махмудов Э.А. Организационно-экономический механизм привлечения прямых иностранных инвестиций в экономику Узбекистана: Дисс. на соиск. уч. степени к.э.н. – Т.: Институт экономики АН РУз., 2005. – 27 с.
12. Sabirov A. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga investitsiyalar jalb etishni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish. Iqt. fan. nom. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. –Т.: TDIU, 2009. – 25 b.
13. Mustafokulov Sh.I. Investision muhit jozibadorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot. / Monografiya. – Т.: Ma’naviyat, 2017. – 328 b.
14. <https://en.wikipedia.org/>
15. www.stat.uz